

**Makale Bilgisi / Article Info**

Geliş / Received: 13.06.2024

Kabul / Accepted: 24.08.2024

**Araştırma Makalesi / Research Article**



**DOI:** 10.55666/folklor.1491128

**DOSTONCHILIK AN'ANALARI VA UNING BUGUNGI SAQLANISH HOLATI**

Nasim OCHILOV\*

**Annotatsiya**

Dostonchilik san'atining jonli og'zaki ijro jarayonlarida yashashi va davom etishi baxshilarning barqaror an'analar doirasida shakllangan ijro mahoratlari bilan bog'lanadi. Dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi va ustoz-shogirdlik an'analari, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an'ana va badiha, jamoa va individual ijro, baxshilarning o'z ijodlariga bo'lgan tanqidiy yondashuv, baxshi va uning tinglovchisi, soz va so'zning badiiy ta'sir kuchiga e'tibor hamda epik ijrochining estetik qarashlari baxshichilik san'atining jonli og'zaki an'analarda davom etishi va ijod qilishiga sabab bo'lgan. Jonli ijodiy jarayonda kechgan mana shunday xususiyatlar bir qator dostonchilik markazlari – o'nlab baxshichilik maktablarining faoliyat yuritib, xalq ma'naviy tafakkurini yuksaltirishda munosib hissa qo'shganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritgan va yuritayotgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Garchi dostonchilik an'analari respublikamizning bir qator hududlarida turli ko'rinishlarda rivoj topib, o'ziga xos ijro usuli va yo'llariga ega bo'lsa-da, XX asrda kechgan ilmiy-texnikaviy rivojlanish, globallashuv, axborot almashuvining tezlashgani, xalqimiz ommaviy savodxonlik darajasining oshgani, yozma adabiyot va boshqa san'at turlarining xalq madaniy hayotidan keng o'rin olgani dostonchilikning avvalgi mavqeini ancha sustlashtirdi. Ko'plab dostonchilik maktablarining jonli jarayonlarda so'nishiga olib keldi. Dostonchilikning an'anaviy tarzda davom etmasligi esa baxshi ijrosi va repertuariga jiddiy ta'sir ko'rsatib, doston matnlarining parchalanishiga olib keldi. Ushbu holatni o'zbek dostonchilik an'analari misolida ko'rsatishga harakat qilamiz. Bahshi so'zining ma'nosi va paydo bo'lishi, bu borada ish olib borayotgan olimlarning fikrlari berilganidan so'ng, baxshining an'adagi o'rni va ahamiyati haqida suhbat o'tkaziladi. Bundan tashqari, bugungi o'zbek jamiyatining badiiy-adabiy tushunchasi doirasidagi epik ijrochilikning bugungi holati ham o'rganiladi.

**Kalit So'zlar:** epik an'ana, epik xotira, baxshi, repertuar, globallashuv.

\* Dots. Dr., Qarshi Davlat Universiteti, O'zbekiston. nasim.ochilov@mail.ru. ORCID: 0009-0005-6540-6567

---

---

## TRADITION OF DOSTON (BALLADE) AND ITS STATE TODAY

### Abstract

Surviving and continuing of the art of Doston in lively folklore is linked with the artistic ability of Bakhshi mastering. Establishing of Bakhshi traditions and apprenticing schools are the main reasons to determine the personality of bakhshi and developing aesthetics points of view about it. Such features in the live creative process testify to the fact that a number of Bakhshi schools have made a significant contribution to raising the spiritual thinking of the people. Bakhshi schools in Samarkand, Bukhara, Tashkent, Fergana, Khorezm, Surkhandarya, Kashkadarya and Karakalpakstan, which have been operating in the Republic of Uzbekistan, are a vivid example of this.

Although the traditions of epic writing have developed in various forms in a number of regions of our republic and have their own methods and ways of performance, the scientific and technical development of the 20th century, globalization, the acceleration of information exchange, the increase in the level of mass literacy of our people, the popularization of written literature and other types of art. It took a large place in the cultural life weakened the previous position of the epic. It led to the extinction of many epic schools in live processes. The non-continuation of epic writing in the traditional manner had a serious impact on the performance and repertoire of Bakhshi and led to the fragmentation of epic texts. We will try to show this situation on the example of Uzbek epic traditions. In this article there is an approach to show this situation on the example of Uzbek epic traditions. After the meaning and emergence of the word bahşı and the opinions of scientists working on the subject are given, a discussion will be held on the role and importance of bahşı in the tradition. In addition, the current situation of epic performance within the artistic and literary understanding of today's Uzbek society will be examined.

**Keywords:** epic tradition, epic memory, bakhshi, repertoire, scene cognition.

## DESTAN (BALLAD) GELENEĞİ VE BUGÜNKÜ DURUMU

### Öz

Günümüzde Özbek destancılık geleneğinin canlı bir şekilde var olması ve bu geleneğin devam etmesi, bahşılığın klasik çerçevesinde oluşmuş icra becerileriyle bağlantılıdır. Destan okullarının ve usta-çıraklık geleneklerinin ortaya çıkışı, bahşının edebi kişiliği ve destansı performansı, gelenek icra, kolektif ve bireysel performans, bahşı'nın eserlerinde var olan eleştirel yaklaşım, bahşı ve dinleyici kitlesi arasındaki etkileşim, bahşının icrasındaki sözler ve kullandığı müzik, bahşı'nın sözlerinin etki gücü ve destan icracısının estetik algısı, bahşılık sanatının yaşayan sözlü geleneğe devam etmesinin temel sebebidir. Günümüz bahşılık geleneğinin bu özellikleri, bir dizi destan merkezinin - onlarca bahşılık okulunun faaliyetleri, insanların manevi düşüncesini yükseltmede önemli bir katkı sağlamaktadır. Özbekistan Cumhuriyeti'nde faaliyet gösteren Semerkand, Buhara, Taşkent, Fergana, Harezmi, Surhandarya, Kaşkadarya ve Karakalpakstan destan okulları bunun canlı bir örneğidir. Her ne kadar destan söyleme geleneği, Özbekistan'ın birçok bölgesinde çeşitli şekillerde gelişmiş ve kendine has yöntem ve icra biçimlerine sahip olsa da 20. yüzyılın bilimsel ve teknik gelişimi, küreselleşme, bilgi alışverişinin hızlanması, halkların kitlesel okuryazarlığı, halkın bilgi düzeyinin artması, yazılı edebiyat ve diğer sanat dallarının halkın kültürel yaşamında geniş yer tutması destanın önceki konumunu zayıflatmıştır. Bu durum günümüzde birçok destan okulunun yok olmasına sebep olmuştur. Destan icrasının geleneksel şekilde devam ettirilmemesi, bahşı icrası ve repertuarını ciddi şekilde etkilemiş ve destan metinlerinin parçalanmasına yol açmıştır. Biz de çalışmamızda bu durumu günümüz Özbek destan geleneği üzerinden göstermeye çalışacağız. Bunun için öncelikle epik gelenek ve epik geleneğin icracıları olan bahşılar hakkında bilgi vereceğiz. Bahşı kelimesinin anlamı ve ortaya çıkışı ve konu hakkında çalışan bilim insanlarının görüşlerine yer verildikten sonra, bahşı'nın gelenekteki rolü ve önemi üzerinde bir tartışma yürütülecektir. Buna ek olarak da günümüz Özbek toplumunun sanat ve edebi anlayışı içerisinde epik icranın günümüzdeki durumu incelenecektir.

**Anahtar Kelimeler:** Destan geleneği, destan hafızası, bahşı, repertuar, küreselleşme.

## Kirish

Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida epik an'ananing genezisi, tadrijiy taraqqiyoti va baxshi ijrochiligining milliy badiiy tafakkur kontekstida tutgan o'rnini belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada dunyo xalqlari orasida turli nomlar bilan atalib kelingan epik kuychi tipining o'ziga xos tabiati, ijro san'ati, ustoz-shogirdlik munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish tamoyillari, epik repertuarining boyib borish omillari, baxshilarning ijro texnikasi, mahorati va badiiy-estetik qarashlari tarixiy-genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan mushtarak ijodiy jarayonning har xil ko'rinishlari ekanligi isbotlandi. Bu esa jahon, shu jumladan, turkiy folklorshunoslikda epik kuychi va uning ijrochilik an'analari, epik repertuarining shakllanishi, dostonchilik maktablari, dostonlar genezisi, tasnifi va poetikasi, epik syujet, obraz va motivlar tipologiyasi kabi milliy eposshunoslikning nazariy masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning yaratilishiga imkon yaratdi.

Keyingi yillarda dunyo eposshunosligidagi metodologik yondashuvlar struktural-tipologik, funksional-semiotik va ruhiy tahlil usullari asosida konseptual jihatdan yangilandi. Ayniqsa, Yugoslaviyada XX asrning ikkinchi yarmigacha o'zining jonli ijrochilik holatini saqlab kelgan epik an'anani tadqiq etgan A.Lord hamda uning amerikalik hamkasbi M.Perri, turkiy xalqlar epik ijodiyotining tarixiy asoslari, milliy versiyalar tipologiyasi va baxshi ijodiyotining tarixiy taqdiri masalalarini o'rgangan olmon folklorshunosi K.Rayxlning asarlarida doston va dostonchilik san'atining yuzaga kelishi, taraqqiyoti va badiiy an'ananing saqlanib qolishi bevosita epik kuychilar o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarining saqlanishiga bog'liq ekanligi isbotlandi. Darhaqiqat, epik ijodiyot baxshi-shoirilar, jirovlar, oqinlar, qissaxonlar va xalfalarning barqaror an'alar doirasida shakllangan etnomadaniy qadriyatdir. Baxshi-shoirilarning estetik idealida xalqning kelajak orzulari, farovon hayoti va qahramonlik xarakterini mujassamlashtiruvchi xususiyatlar epos qobig'i asosida epik xotira orqali yetib keldi. Baxshilarning epik voqelikni ijro va ijod etish an'anasi baxshichilik va dostonchilik san'atida professionallashtiruvchi yuzaga chiqarib, uning keng ommalashuviga imkon yaratdi.

Ayniqsa, bugungi kunda jahonning turli joylarida saqlanib kelayotgan xalq terma va dostonlarini ijro etuvchi, saqlab qoluvchi hamda kelgusi avlodga yetkazuvchi yuksak professional tayyorgarlikka ega bo'lgan ijodkor – baxshilar ijodini qadrlash, qadimiyatni bugungi davr bilan bog'lovchi baxshichilik san'atini saqlab qolish, rivojlantirish, yosh baxshi-shoirilar ijodiy faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixiy taraqqiyoti, baxshilarning doston ijro etish mahoratlari, dostonchilik maktablarida ustoz va shogird an'analari, dostonlarda g'oyaviy-badiiy xususiyatlar, soz va so'zning badiiy ta'sir kuchiga e'tibor kabi masalalarni o'rganish hozirgi zamon turkiy xalqlar folklorshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Baxshi ijodiyotining bugungi jonli jarayondagi saqlanish holati, baxshilar ijrosida epik xotira, bilim va dunyoqarashning o'rni, ijtimoiy-madaniy omillarning jonli og'zaki ijro va barqaror uzviylikka ta'siri hamda dostonchilikning saqlanish holatini baxshichilik san'ati materiallari asosida tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi doirasida o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

**Epik kuychi:** baxshi – epik kuychi, ijrochi va ijodkor. U sozandalik, bastakorlik, hofizlik, aktyorlik va so'z mahorati ijrochiligini mukammal o'zlashtirgan, professional qobiliyatga ega ijodkor hisoblanadi. A. Lord iborasi bilan aytganda: “Eposni ijrochisi-eposning yaratuvchisidir. Qo'shiqchi, ijrochi, bastakor, shoir-bu har xil nuqtai nazardan qaralsa-da, ammo eposni kuylash, ijro etish va bastalash bilan bog'liq voqeaning turli ko'rinishlaridir”<sup>1</sup> [Lord,1994, s. 25]. Baxshi ijodining shakllanishi, ijodiy manerasining boyib borishi, albatta, epik an'alar zahirida yuzaga keladi. Epik an'ana esa har doim qobiliyatli va maxsus tayyorgarlik ko'rgan ijrochilik hamda ijodkorlik usullarini puxta o'zlashtirgan san'atkor – baxshilar ijodi bilan bog'liq. Baxshi shaxsi, uning ijtimoiy-tarixiy va maishiy hayotda tutgan o'rni bilan bog'liq qarashlarning mifopoetik xususiyatlarini o'rganish arxaik eposning yuzaga kelish omillari, tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etishda muhim rol o'ynaydi. Zero, epik syujet, motiv va obrazlarning genezisi, tarixiy taraqqiyotdagi o'rni, bunda ijrochi va uning shaxsi bilan bog'liq e'tiqodiy tasavvur va qarashlar borasidagi tushunchalarni tipologik nuqtai nazardan qiyoslash eposshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Eposni ijro etuvchi san'atkor turli xalqlarda turli nomlar bilan yuritilsada, turkiy xalqlarda, jumladan, uyg'urlarda dostonchi yoki qo'shiqchi, qirg'izlarda "Manas" qahramonlik eposini ijro etuvchi manaschi, jomokchi, qoraqalpoqlarda jirchi, Oltoy turklarida qaychi, qozoqlarda oqin, turkmanlarda baxshi, o'g'uzlarda o'zan, laqaylarda soqi, ozorbayjon va turklarda oshiq kabi nomlarda yuritilib kelinmoqda. O'zbeklarda asosan ikki tushuncha-shoir va baxshi so'zlari epik asarlarni ijro etuvchi ijodkorlarga nisbatan qo'llanib, xalq orasida (baxshi, shoir, soqi, sozanda, sozchi, xalfa) nomlari bilan qo'llanadi. Xorazmda garmonda doston kuylovchilarni sozchi, ayol dostonchilarni "xalfa"lar deb ataladi<sup>2</sup> [Mirzayev, 1988, s. 13]. Bugungi kunda "shoir" va "baxshi" istilohlari epik asarlarni ijro etuvchining professionalligi, iqtidori va mahorati jihatidan farqlanadi. Shoir o'ta chechan, talantli va badihago'y dostonchilarga nisbatan qo'llanilib, ular dostonlarni epik an'analarda doirasida ijod qiluvchi va badihago'ylik mahoratiga ega san'atkorlardir. Fozil shoir, Po'ltan shoir, Umir shoir Safarov va boshqalar ana shunday mahoratli, el oldida o'zlarining doston ijro etish va uni badiha qila olish qobiliyatlarini bilan shuhrat qozonganlar. Qadimda baxshi so'zi dostonchi va shomon ma'nolaridan tashqari turli-tuman vazifa bajaruvchi shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan.

"Baxshi" so'zining boshqa ma'nolarda qo'llanilishi ham mavjud. Ko'pchilik manbalarda "baxshi" so'zi etimologik jihatdan turli ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, qadimgi uyg'ur yozuvli manbalarda u yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Ba'zi manbalarda XVI asrga qadar saroyda uyg'ur kotiblari ham faoliyat yuritib, ular ham baxshi so'zi bilan atalgan. E. D. Polivanov ushbu so'zning xitoy tilidan olinganligini ta'kidlaydi: "Xitoy tilidagi shakli "pak-shi" (hozirgi xitoy tilida "bo-shi") bo'lgani holda turkiy tilga mo'g'ul tili vositasida o'zlashgan. Ushbu xitoycha so'z yapon tilidagi "hakase//hakusi" so'zlari uchun ham manba bo'lib hisoblanadi"<sup>3</sup> [Polivanov, 1922].

V. V. Bartold esa bakshi (sanskritcha asli – bhikṣu) Sharqiy Turkistonda yashovchi uyg'ur kotiblari hamda uyg'urlar ichida yashagan buddiy rohiblarga nisbatan ishlatilganligini aytadi. Tilshunos I. Yuldashevning baxshi so'zi va uning etimologiyasi bilan bog'liq kuzatuvlari diqqatga sazovor. Olim bir qator tadqiqotlarga tayanib quyidagi fikrlarni bildiradi: "Turk tilining etimologik lug'ati"da baxshi so'zi haqida quyidagi izohlar keltirilganligini ta'kidlaydi: "Xitoycha ("pak-shi" "po-shi" ham deyiladi: ustoz, yozuvchi, kotib ma'nolarini anglatadi)dan "bahshi-bakshi. Bu so'z Anado'li turkchasida u qadar keng qo'llanilmagan, u asosan, shaman e'tiqodli turklarga oid bo'lib, "to'y-tomoshalarni bajaruvchi kishi"ga nisbatan ishlatilgan. Osiyo turkchasida "p" tovushi "b" bilan beriladi. Shu sababli: po-si/bosi/baski/bakshi". Ushbu so'zning xitoy tilidagi talaffuzi bilan lahjalardagi talaffuz farqliliklari birgalikda qo'llanilgan bo'lgan. Sanskritcha – bhikṣu, mo'g'ulcha bakshi". E. R. Tenishevning fikricha: "baxse leksemasi uyg'ur tilining sharqiy lahjasida "baxshi", "tabib", "shaman", shuningdek, uyg'ur tili markaziy shevasining dolan lahjasida baqsy – "afsungar", "folbin", oqso'y lahjasida baqsi, baxsy, qys, vaxsyy "ovchi qushlar yordamida ov qiluvchi", qashg'ar va yorqent lahjalarida – "(kasallik keltiruvchi jinlarni quvish yo'li bilan) xastalikni davolovchi", uyg'ur adabiy tilida – baxsi, X-XIII asrga oid qadimgi uyg'ur yodnomalarida esa "ustoz", "shogird" ma'nolarini ifodalaganligini yozadi<sup>4</sup> [Yuldashev, 2019, s. 19]. Eronlik musiqashunos V. Hazrai baxshi atamasining ikki ma'noda qo'llanilishi borasida fikr bildiradi. Birinchi ma'nosida baxshi ruhoniy, tabib, olim va ustoz. Ikkinchi ma'noda monarx tushunchasini ifodalashini aytadi<sup>5</sup> [Khazrai, 2019, s.37]. O'zbek folklorshunosligining asoschilaridan biri H.Zarifov "baxshi" atamasi mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha so'zlaridan olingan bo'lib, ustoz, ma'rifatchi degan ma'nolarni anglatishini yozadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, baxshi so'zining etimologiyasi "kohin", "ruhoniy" ma'nosiga yaqin turishi, g'oyaviy maqsad nuqtai nazaridan ikki tushuncha ifodalagan va bajargan vazifalar uning mazmun-mohiyatiga yaqin turadi. Demak, baxshi va uning istilohi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayot tarzida turli nomlarda, vazifalarda qo'llanilib kelishidan qat'iy nazar bugungi folklorshunoslik fani, uning nazariy qarashlari nuqtai nazaridan doston va termalarni ijro etuvchi yuksak darajadagi san'atkorga nisbatan meyorlashgan. Baxshilar repertuari cheklangan bo'lib, ular asosan, xalq terma va dostonlarini ijro qiladi. Bu esa baxshilar repertuari nihoyatda cheklangan degan mazmunni ifodalamasligi, balki keng xotira va bilim manbaiga ega bo'lgan ijro va ijodiy qobiliyatni o'zida mujassamlashtirgan iste'dodli, talantli hamda professional ijrochilik qobiliyatini o'zlashtirgan san'atkorlarning qat'iy an'analari asosida amal qilgan ijod ko'nikmalaridir. Olimlarning keyingi davrda olib borgan tadqiqotlarida epik kuychi va shomonlik genezisi, ularning tarixiy taraqqiyotidagi o'xshash sifatlar mavjudligi aniqlandi.

**Dostonchilik an'analari:** doston kuylash va baxshi tayyorlashning o'ziga xos usullari bo'lib, ular asrlar mobaynida ustoz-shogird, dostonchilik maktablari an'analari doirasida amal qilgan. Baxshilar doston kuylashda qat'iy an'analarga rioya qilganlar. Dastlab termalar (Xorazm dostonchiligida terma aytilmagan) keyin esa auditoriyaning talabiga muvofiq dostonlar ijro qilingan. Baxshi tayyorlashning ham o'ziga xos jihatlari bo'lib, ustoz baxshilar shogirdlarni yonida olib yurib, termalar, dostonlardan parchalar keyin esa mustaqil dostonlarni ijro ettirganlar. Epik repertuari o'zlashtirish og'zaki eshitish va yodlash asosida amalga oshirilgan.

Epik ijodiyotda dostonchilik maktablarining o'rni katta bo'lib, ularga xos an'anaviy ijro usullari va doston kuylari baxshi-shoirilar mahorati orqali yetib kelgan. Doston ijro etish va u bilan bog'liq xususiyatlar ko'pchilik xalqlar ijodiyotida mavjud bo'lsa-da, ular ijroning umumiy jihatidan o'xshashliklarga ega. Dostonchilik maktablari o'rtasidagi farqli xususiyatlar, asosan, ijro yo'llari va usullarida ko'rinadi. Mana shunday farqli tomonlarni inobatga olib, olimlar "dostonchilik maktabi" atamasini qo'llaydilar. Dostonchilik maktabining o'ziga xosligi va ijro xususiyatlari haqida bir qator tadqiqotlarda nazariy qarashlar mavjud. Jumladan, A. Lord, V. Chicherov, B. Putilov, K. Rayxl, V. Jirmunskiy, A. Novikov, H. Zarifov, T. Mirzayev, S. Fidakorva boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida poetik maktab va uning ijro yo'llari, epik ijrochining barqaror an'analarda davom etgan ustoz-shogirdlik munosabatlari, doston aytish usullari va ijro san'atining umumiy hamda xususiyliklari ilmiy-nazariy qarashlarda ko'rsatib o'tilgan.

Demak, dostonlarning ma'lum bir poetik guruhlar doirasida yaratilishi va ijro etilishi dostonchilik maktablarini yuzaga keltirgan hamda ularning shu maktab doirasida ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirgan. Dostonchilik maktablarining ma'lum geografik joylarga nisbatan bog'lanishi o'sha hududlarda qachonlardir bir ijoddoshlik asosida doston ijro etishning takomillashganligi, qolaversa, iqtidorli ustoz baxshilarning faoliyat yuritgani va shogirdlarning ushbu san'at turini o'rganishi hamda davom ettirganligidandir. Dostonchilik maktablari haqida fikr yuritganda ma'lum hududning shartli asosda poetik markazga bog'lanishi, qolaversa, o'sha hududda baxshilar ijrosining shakllanishi va epik repertuarining takomillashib borishi bilan bog'liq holatlardan hisoblanadi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha respublikamizda biror baxshi nomi bilan bog'liq dostonchilik maktablari bugungi kunda mavjud emas. Turkiy xalqlar dostonchilik maktablarining nomlanishi borasida fikr yuritgan Selami Fidakor Qoraqalpog' va Turkiyada ijrochilar nomi bilan bog'liq maktablar mavjudligini qayd etadi. "Ma'lum bir mashhur baxshining nomiga bog'liq holda doston maktablariga nom berish Qoraqalpog'iston va Turkiya hududidagi dostonchilarga xos an'anadir"<sup>6</sup> [Selami, 2019, s.40].

Tadqiqotchining fikri, albatta, bir tomondan o'rinli. Ammo dostonchilik san'atining paydo bo'lishi, taraqqiyoti turli davrlarda mavjud bo'lganligi, qolaversa, har bir hududda ham iste'dodli ijrochilarning yetishib chiqqani, ular an'anaviy ta'lim berish asosida shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgani shu hudud baxshichilik san'atini ustoz baxshi nomi bilan bog'lashiga sabab bo'lgan. Talantli baxshilarning doston ijro etishdagi o'ziga xosliklari, individual ijro bilan bog'liq mahoratlari mavjud bo'lsa-da, ular barqaror an'analarda asosida yuzaga kelganligi ma'lum. Shulardan kelib chiqqan holda epik ijroning tarqalish jarayoni turli hududlarda turlicha kechib, u ijtimoiy-maishiy hayot zarurati asosida yo rivojlanib, yo so'nib boraveradi. Dostonchilik maktablari esa ma'lum hudud nomlari bilan bog'liq bo'lib, H.Zarifov ushbu holatga quyidagicha e'tibor qaratadi: "G'oyaviy yo'nalish va sinfiy mansubiyatda bir bo'lgan bu shoirlar repertuarlari, poetik priyomlari, ijro usullari jihatidan bir-biridan farq qiladilar. Xalq baxshilarining o'zlariga xos poetik yo'llar bilan bir-biridan ajralishlarini men fanda dostonchilik maktablari deb ataganman"<sup>7</sup> [Zarifov, 1976, s.9].

T. Mirzayev dostonchilik maktablariga xos xususiyatlar "...umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi, ustoz-shogirdlik munosabatlari mavjud"<sup>8</sup> [Mirzayev, 1979, s. 39] bo'lganligi, ularning farqli va o'xshash jihatlari mana shunday tomonlarda ko'rinishi borasida fikr-mulohazalarini bildiradi. Dostonchilik maktablari umumiy nomda yuritilishidan qat'iy nazar, har bir hududning o'ziga xos ijro xususiyatlari mavjud. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir.

**Epik ijroning hozirgi saqlanish holati:** Ijtimoiy-maishiy hayotimizda yuzaga kelgan bugungi madaniy o'zgarishlar, texnologik jarayonlar baxshi va uning ijro repertuariga ta'sir ko'rsatayotganligi doston matnining buzilishi va soxta dostonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Chunki "Baxshilar avlodining og'zaki an'analarning kontekstida jonli aloqasi-bu doston ijrosi va uning maishiy hayotda mavjudligidir. Bu aloqaning so'nishi dostonchilik maktablarining so'nishi, og'zaki ijroning tugashi, eposning boshqacha sifatga ega ekanligi-jonli ijrodan, uni yaratgan tabiiy muhitdan, yozma ravishda yozib olishdan, epik hayotning murakkab badiiy tomonini sun'iy tarzda ko'paytirishdan iborat. Jonli ijroning o'ziga xosligi voqealarni auditoriyaga turli ijrochilik asosida yetkazishdir. Bu kabi xususiyatlarning mavjud emasligi qadimiy voqealar tinglovchisi bo'lgan auditoriyaning bo'lmasligiga olib keladi"<sup>9</sup> [Kidirbayeva, 1984, s.4]. Ayniqsa, baxshilarning doston ijro etish an'anasiga e'tibor qaratmasligi o'zlari kuylayotgan doston matnining buzilishiga hamda epik bilimning tanazzuliga yuz tutmoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda baxshilar epik an'ana doirasida doston ijro qilishga harakat qilsalar-da, hozirgi adabiy-madaniy muhit tufayli o'zlarida mualliflik hissi, an'anaviy eposga ijodiy yondashuv tuyg'usi kuchayib bormoqda. Natijada baxshi doston ijro etish jarayonida kuylayotgan dostoniga bilib-bilmasdan o'zgartirishlar kiritmoqda. Bu narsa folklordagi individual va jamoa ijod mutanosibligining buzilishiga va soxta dostonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik baxshilarning an'anaviy dostonlar syujet va motivlari asosida yangi-yangi kombinatsiyalarda o'z variantlarini "yasab" ijro etishga urinishlari ham mana shunday holat bilan izohlanadi. Bunday "dostonlar" ayrim baxshilarning "yozuvchilik", "shoirlik"ka intilishi, ilgari epik an'anada bo'lmagan dostonlarni to'qishga urinishi mahsulidir. Og'zaki an'analarning buzilishiga va soxta dostonlarning yuzaga kelishiga birgina "Alpomish" dostoni yaqqol misol bo'la oladi. Baxshilar dostonlarning syujet va kompozitsion qurilishiga, obrazlar yaxlitligiga, qadimiy motivlarning ishlanishiga, epik klishe va formulalarning qo'llanishiga har doim alohida e'tibor bilan yondashganlar. Bunda individual va jamoaviy ijod mutanosibligi to'la saqlangan. Shuning uchun ham bunday dostonlar xalqimiz hayotida mangu yashab, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Mazkur holatni "Alpomish" dostoni tarixida ham ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha "Alpomish" dostonining har ikkala qismi qachonlardir alohida-alohida yaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo bundan ming yillar oldin ular yaxlit doston sifatida shakllangan va keyinroq yaratilgan "Yodgor" dostoni bilan birgalikda alohida turkumni tashkil etadi.

Keyingi yillarda "Alpomish" dostoni kattakon turkumni tashkil etgan bo'lib, 32 doston dan iborat degan asossiz fikrlar paydo bo'ldi. Bunday holatlar doston syujetini murakkablashtirish (yozma adabiyot ko'rinishi asosida tasvirlash), baxshining barcha bilganlarini bir dostonga tiqish, mavjud variantlardan boshqacharoq qilib aytishga intilish, bir dostonga xos epizodlarni boshqasiga ko'chirish kabi holatlarda ham ko'zga tashlanmoqda. Bu esa doston ijrosi, uning variantlarida qandaydir quramalik, hatto bir-biriga zid tasvir paydo qilmoqda. Epik an'anani saqlay olmaslik yoki bilib-bilmasdan doston voqealariga istagan qo'shimchalarni birlashtirish dostonchilikda sifat o'zgarishiga erishildi degani emas, balki ma'lum davr ijrosi uchun yuzaga kelgan vaqtinchalik holatlardandir. Albatta, baxshi "istagani"ni aytganda yuz beradigan ko'rinish uning iste'dodidan darak bermaydi. Bunday hodisaning sabablarini turkiy xalqlar folklorining ilk tadqiqotchilaridan biri V. V. Radlov quyidagicha izohlagan edi: "Fikr ma'lum bo'lgan so'zni talab qilganda, so'zlovchi artikulyatsiya to'g'risida o'ylamasdan so'zni talaffuz qilganiday, agar baxshiga tashqaridan qandaydir ta'sir boshlansagina, u shakl to'g'risida o'ylamasdan, istaganini kuylayveradi"<sup>10</sup> [Radlov, 1885, s.89]. Epik an'ananing ustozdan shogirdga og'zaki shaklda yetib kelgan variantlari ayni shu joyda namoyon bo'ladi.

Misol uchun qizlarning sayilboqqa chiqish tasviri romanik dostonlar uchun xos bo'lib, bunday tasvir qahramonlik dostonlarida deyarli uchramaydi. Ba'zan bir doston turiga xos bo'lgan xususiyatlarning ikkinchisi tarkibida uchrashini baxshilar baravar kuylab kelganligi sababli keyingi davrlarda ro'y bergan hodisalardan biri sifatida baholash mumkin. "Alpomish" qahramonlik eposining ayrim variantlarida romanik dostonlarga xos xususiyatlarning kirib qolishi ham shu bilan izohlanadi. Masalan, Umir shoir repertuaridagi "Alpomish" dostonida Tovkaning kanizlari bilan Chilbir cho'lidagi qo'rg'onchasiga sayilboqqa chiqish epizodi yoki Berdi baxshi variantidagi "Men seni sevdim, Tovkajon, Sen meni sevgin, Tovkajon" tasviri shunday o'rinlardandir. Ammo bu variantlarda meyor, mutanosiblik to'la saqlangan. Sun'iylik ko'zga tashlanmaydi. Xushvaqt baxshi

"Alpomish"ida ham qizlarning sayilboqqa chiqish tasviri bo'lsa-da, tasvirdagi xususiyatlarning o'zgachaligi bilan farqlanib turadi. Boysari bilan Boybo'ri o'rtasida kelib chiqqan nizo Boysari boshliq qo'ng'iroq urug'ining qalmoq yurtiga ko'chib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan xabar topgan Toychixon yasovullarini Baysarining oldiga yuboradi. Boysarining qalmoq yurtiga borishi, bundan xabar topgan Toychixonning yasovullarini yuborishi, yasovullar qaytar chog'ida Barchin boshliq kanizlarga duch kelish epizodi tasvirlangan. "Ha, aytganlaringizni, albatta Toychixonga yetkazamiz", - deb otlariga minishayotgandi, ittifoqo, sayriboqqa chiqib ketgan Barchin kanizlari bilan yonib-tovlanib, gulday oralanib, ammo o'zi ham bilibmi-bilmay, ularga yaqinlashib qolsa bo'ladimi-a?

Qorli tovlar gazasi,

Sochli miltiq dazasi,

Heyla, kelayotirlar

Suluvlarning tozasi.

Bitta quchib o'psangiz,

Hafta ketmas mazasi.

Chin oshiq bo'p ayrilsang,

Sira ketmas izzasi.

Mana kelar Barchin yor,

Ko'zlari xumor-xumor"<sup>11</sup> [Alpomish, 1998, s.30], - kabi juda uzundan-uzoq tasvir mavjud.

Bunday parchalar baxshining ma'lum ma'noda badiha qilishi, tasvirni kengaytirishga bo'lgan ijro jarayoni bilan bog'liq holatlardan hisoblansada, u dostondagi voqealar tasviri bilan uyg'unlashib ketmagan. Doston tarkibiga tirkab qo'yilgan mustaqil termaga o'xshab qolgan. Umir shoir variantida Tovka boshliq kanizlarning sayilboqqa chiqish tasviri, garchi u dostonga romanik dostonlar ta'sirida keyinchalik kirib qolgan bo'lsa-da, asarning umumiy kompozitsion qurilishi bilan bog'lanadi. Xushvaqt baxshi variantida esa Barchinning kanizlari bilan sayilboqdan qaytib kelish tasviri epik voqelik bayonidan uzilib qolgan. Lirik ifodaning bunday ijro yo'nalishi termalar va "Kelinoy" qo'shiqlariga xos. "Kelinoy" qo'shiqlaridagi qizlarning chiroyi, husni, latofati to'g'risidagi tasvirlar shundaygina Barchin va uning qizlariga ko'chirilgan. Parchaga "Mana kelar Barchin yor, Ko'zlari xumor-xumor" singari misralarning kiritilishi ham sun'iylikka barham bera olmagan. Xuddi shu dostondagi Alpomishning qalmoq eliga safari bilan bog'liq epizodda ham mantiqsizlik, baxshining an'analarni buzib ijro etish holatlari ko'zga tashlanadi.

**Epik xotira va bilim:** An'anaviy doston matnlarining avloddan avlodga o'tib kelishida epik xotira va bilim muhim ahamiyatga ega. Baxshining xotirasida dostonlarning umumiy ssenariysidan iborat bilim mavjud bo'lib, ijrochi har gal doston kuylaganda ana shunday zahiradan keng foydalanib, uni takomillashtirib borgan. Chunki epik san'atga o'rgatish jarayonida shogird epik xotira, bilim va dunyoqarashni qabul qilishi, o'zlashtirishi va epik matnlarni mana shu uchlik asosida yaratib, ijro eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Baxshichilik san'atida epik xotira ijodni, ijodiy qobiliyatni an'analar qobig'ida saqlovchi muhim quroldir. Ijodiy jarayonda uning so'nib borishi ijroning buzilishiga olib keladi. "Baxshichilik san'atida epik xotira, bilim va dunyoqarash unutilsa, unda ijodiy boshlanish ham yo'qoladi"<sup>12</sup> [Putilov, 1997, s.274]. Baxshi bu kabi tushunchalarni o'zi his etmasada, ta'lim olish jarayonida bevosita ularga amal qiladi.

Epik xotira va bilimning susayishi, birinchidan, ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Yozma adabiyot, kino, ommaviy axborot vositalari va global tarmoqning xalq maishiy hayotiga kirib kelishi baxshini tinglashga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni sustlashtirdi. "Hozirgi davr kishisining estetik didi yozma adabiyotning murakkab estetik talablari asosida shakllangan; u xalq eposiga xos estetik ko'lam va diddan qoniqa olmaydi"<sup>13</sup> [Sarimsoqov, 1999, s.7]. Natijada baxshi tor doirada kuylaydigan bo'lib, uning ijrosi zamonaviy auditoriya dunyoqarashiga moslashdi. Eposning tasvir uslubi hozirgi zamon voqeligi va hozirgi inson ruhiy kechinmalarini, uning murakkab hayot manzaralarini tasvirlashga ojizlik qilib qolmoqda. Epik xotiraning baxshi xotirasida o'zgarishi faqatgina doston matnida emas, balki doston kuylari va ijro shaklida ham ko'zga tashlanmoqda.

Shunday boʻlsa-da, bugungi kunda Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qisman Qoraqalpogʻistonda davom etayotgan baxshichilik sanʼatiga qiziqish, baxshini doston aytirishga boʻlgan talab va ehtiyojlar mavjud boʻlib, bu kabi jarayonlar yosh avlodni doston kuylashga qiziqtirmoqda. Auditoriyaning mavjudligi, baxshi-shoirilar oʻrtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarining nisbatan davom etayotganligi, hamda unga amal qilishlar yoshlar oʻrtasida doston matnlarini oʻrganish ishtiyoqini uygʻotmoqda. Ammo shuni ham alohida taʼkidlash joizki, baxshilar anʼanaviy dostonlarni ijro qilishga harakat qilsalarda, bugungi adabiy-madaniy hayot tufayli oʻzlarida mualliflik hissi, eposga ijodiy yondashuv tuygʻusi kuchayib bormoqda.

Voha baxshilaridan yozib olinib, chop ettirilgan “Sohibqironning tugʻilishi”, “Oysuluv” (Roʻzi baxshi Qultoʻrayev), “Ahmad Yassaviy”, “Temur va Boyazid”, “Samarqand tarovati”, “Qoʻngʻirot”, “Beva Barchin”, “Qodir baxshi haqida doston” (Qahhor Rahimov), “Alp Qoʻngʻirotbek” (Chori Umirov), “Qaysar dev” (Ahmad baxshi Shotoʻra oʻgʻli), “Sanamgul” (Rasul baxshi Umirov) va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning barchasi bugungi voha baxshilari dunyoqarashining zamonaviylashayotganligi, epik jarayonning davr ruhiga mos tarzda aks ettirish kuchayib borayotganligidan dalolat bermoqda. Badiiy mezonlarda tinglovchilarning dunyoqarashi asosida doston voqealariga erkin ijodiy yondashish holatlarini kuzatish mumkin. Goʻyoki baxshilar oʻzlarini yangi davr ijodkorlari sifatida baholay boshladilarki, bunday holatlar ular ijodida anʼanada mavjud boʻlmagan yuqorida keltirilgan dostonlarning “yaratilishi”ga sabab boʻldi. Baxshining sahnada zamonaviy koʻrinishi esa faqatgina dostonlardan parchalar ijro etish emas, balki ular repertuarida terma ijodkorligini ham kuchaytirmoqda.

Bugungi baxshilarning savodxonligi, chop etilgan doston matnlari va yozma adabiyot namunalari ijodiy jarayonlarda erkin foydalanish imkonini yaratmoqda. Bularning barchasi ogʻzaki sharoitda doston ijro etishning asta-sekinlik bilan soʻnib borishini tezlashtirmoqda. Baxshilar ijrosi va epik repertuari bilan bogʻliq bu kabi oʻzgarishlar individual ijodkorlikni, doston matnlarining buzilishiga olib keldi. Baxshichilik sanʼatini ogʻzaki oʻrganib, uni ogʻzaki avlodlarga yetkazuvchi badihagoʻy baxshilar avlodining hayotdan koʻz yumganligi yangi avlod baxshilarining anʼanalarni toʻliq oʻtkazaolmaganligi baxshichilik sanʼatining bir qator hududlarda soʻnishiga sabab boʻldi. Endi ustozlar shogirdlarini oʻz uylarida ikki, uch yil olib yurmas, bilganlarini doimiy ravishda oʻrgatib, sinov sharti bilan talantini aniqlash, duo berish tugagan edi.

Baxshilar shogird tayyorlashda yillar mobaynida emas, balki doʻmbira chaldirish, terma va dostonlardan parchalar aytirish asosida yoshlarga oʻrgata bordilar. Ustoz koʻrgan Qora va Chori Umirov, Abdunazar Poyonov, Qahhor Rahimov, Shomurod Togʻayev, Shodmon baxshi Xoʻjamberdiyev, Mahmadmurod baxshi va boshqa bir qator baxshilarning ijro repertuarining individuallashuvi voqealarni tasvirlashda murakkablashtirish holatlarini yuzaga keltirmoqda. Ular ijro etayotgan doston namunalari yozma adabiyotga xos unsurlarning tasvirlanayotganligi, oʻzi bilmagan holda epik anʼanalarga oʻzgartirish kiritayotganligi, baxshining yozuvchilik, shoirlik iqtidoridan kelib chiqqan holda doston matnlariga ijodiy yondashuvi hamda anʼanada mavjud boʻlmagan dostonlarni oʻzlaricha ijod qilayotganligi yosh avlodga namuna boʻlmoqda. Bu kabi holatlar baxshi va uning auditoriyasining kamayishiga, jonli ogʻzaki anʼanalarning nisbatan soʻnib borishini tezlashtirmoqda. Shunday boʻlsa-da, bugun vohada doston ijro etish anʼanasi davom etayotgan ekan uning jonli jarayonda saqlanishiga quyidagilar asosiy sabablardan hisoblanadi.

**Epik muhit va marosim:** Baxshichilik va dostonchilikka havas va intilish vohada istiqomat qilayotgan mahalliy aholining qiziqishi hozirgi vaqtda ham soʻngani yoʻq. Keksa avlod kishilarining baxshini tinglashga va ijodidan bahramand boʻlishga intilishi, toʻylar, davralar va bayramlarda baxshilarni taklif qilishga urinishlar ham yosh avlodni ushbu sanʼat turiga boʻlgan qiziqishini orttirmoqda. Baxshichilik sanʼati arxaik koʻrinishida marosim bilan yonma-yon yashab kelgan ekan, u xalqimiz marosimlarida yangicha talqinlari bilan xizmat qilishda davom etib boradi.



## Natija

Ikkinchidan, epik xotira, bilim va dunyoqarash. Ustoz ko‘rgan an’anaviy doston matnlarini o‘zlashtirgan bir qator badihago‘y baxshilarning mavjudligi, ularning epik xotirasi, bilimi va dunyoqarashi asosida doston kuylash usullari va ijro etish mahoratlari ma‘lum ma‘noda ijod qilishga imkon berayotganligi hamda qiziquvchan yoshlarga dostonlarni o‘rgatayotganliklari ushbu san‘atning xalq madaniy hayotida nisbatan saqlanish imkoniyatini hozirlamoqda.

Uchinchidan, baxshi va auditoriya. Baxshilar ijrosida yangicha “auditoriya”ning vujudga kelganligi ham ular ijodidan bahramandlik kayfiyati his etilmoqda. Baxshining zamonaviy auditoriyasi ommaviy axborot vositalarida, audio va video ko‘rsatuv va eshitirishlarda namoyon ettirilishi bilan bog‘lanadi. Bugungi kunda doston ijro etishning imkoniyatlari kengaydi. Baxshilar zamonaviy ijrochi sifatida teatrlashtirilgan sahnalarda, televideniye, radio va audio hamda video ko‘rinishlarda namoyish etilayotgan ijrochilik mahoratlari bilan ko‘pchilik kishilarning bahramand bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Endilikda baxshi maxsus tayyorlangan auditoriyada o‘zi erkin bo‘lmagan holda zamonaviy doston ijro etish ko‘nikmalariga moslashmoqda. Bunday jarayonlar ham ma‘lum ma‘noda baxshichilik san‘atining saqlanishiga imkon yaratmoqda.

To‘rtinchidan, epik ijro va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish. Milliy qadriyatimiz timsoliga aylangan nomoddiy madaniy meros durdonalari, jumladan, baxshichilik va dostonchilik san‘atini saqlab qolish, rivojlantirish, yosh baxshi-shoirlar ijodiy faoliyati har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Baxshi-shoirlar ko‘rik tanlovlari va ular haqida ommaviy axborot vositalarida chiqishlar uyushtirilayotganligi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” unvonining ta‘sis etilganligi, Qora va Chori Umirovlar, Shomurod Tog‘ayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdumurod Rahimovlar, Rasul baxshi Umirov, Shodmon baxshi Xo‘jamberdiyev, Mahmatmurod va Ochil baxshilarning ushbu unvonga sazovor bo‘lishlari, Ro‘zi Qulto‘rayev, Shodiqul va Boyqul Mirzayev, Panji baxshi, Bahrom va Ziyodulla baxshilarning dostonchilik sirlarini shogird baxshilarga o‘rgatishlari ushbu san‘atning nisbatan saqlanib turishini ta‘minlamoqda.

Umuman olganda, xalq dostonchiligi xalqning etnomadaniy hayoti va uning tarkibiy qismi ekan, unda xalq ruhiy e‘tiqodi, an‘analari umumlashma badiiy ifodasini topadi. Baxshichilik va dostonchilik san‘ati esa ana shunday an‘analari qobig‘ida o‘zining yangicha talqinlari bilan yashaydi va avlodlarga xizmat qilishda davom etadi.

## Sonnotlar

<sup>1</sup> Лорд А. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994. – С.25.

<sup>2</sup> Мирзаев Т. Фольклор и жодкорлари ва ижрочилари // Ўзбек фольклори очерклари. Биринчи китоб. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.13.

<sup>3</sup> Поливанов Д.Е. Дальневосточные термины орудий писма // Сборник Туркестанского Восточного института в часть проф.А.Э.Шмидта. – Тошкент, 1922.

<sup>4</sup> Юлдашев И. Ўзбекистонда бахшичилик ва унга оид айрим терминлар этимологияси хусусида // “Фольклор, тил ва маданият масалаларини илмий ўрганишда фан ва инновациялар уйғунлиги” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.16.

<sup>5</sup> Khazrai V. Bakshi // “Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.37.

<sup>6</sup> Фидакар Селами. Ўзбек дostonчилик анъанасида ва бошқа туркий халқлар дostonчилик мактабларида номлаш ва тасниф // “Фольклор, тил ва маданият масалаларини илмий ўрганишда фан ва инновациялар уйғунлиги” мавзусидаги халқаро илмий- амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.40.

<sup>7</sup> Зарифов Х. Фозил шоир – машхур дostonчи // Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3- китоб. – Тошкент, 1976. – Б.9.

<sup>8</sup> Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.39.

<sup>9</sup> Кыдырбаева Р.З.Сказительское мастерство манасчи. –Фрунзе: Илим, 1984.стр. 4

<sup>10</sup> Радлов В.В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. Ч.5. Наречие дикокаменных киргизов. – СПб., 1885.- С.89.

<sup>11</sup> Алпомиш. Дoston. Айтувчи Хушвақт Мардонақулов. Нашрга тайёрловчи Т.Турдиев. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б.30.

<sup>12</sup> Путилов Б. Эпической сказительство. -М.: Восточная литература, 1997. Стр. 274.

<sup>13</sup> Саримсоқов Б. “Алпомиш” классик эпос намунаси. Ўзбек тили ва адабиёти, журнал. 1999 №4-сон. 7-бет.

### **Каунаклар**

Лорд А. (1994). Сказитель. – М.: Восточная литература, – С.25.

Mirzayev T. Folklor ijodkorlari va ijrochilari // O‘zbek folklori ocherklari. Birinchi kitob. – Toshkent: Fan, 1988. – B.13.

Поливанов Д.Е. Дальневосточные термины орудий писма // Сборник Туркестанского Восточного института в часть проф.А.Э.Шмидта. – Тошкент, 1922.

Yuldashev I. O‘zbekistonda baxshichilik va unga oid ayrim terminlar etimologiyasi xususida // “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – B.16.

Khazrai B. Bakshi // “Jahon sivilizatsiyasida baxshichilik san’atining o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – B.37.

Лорд А. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994; Чичеров В.И. Школа сказителей Заонежья. – М, 1982; Путилов Б. Эпическое сказительство. – М.: Восточная литература, 1997; Новиков Ю.А. Сказитель и билинная традиция. -СПб, 2000; Райхл К. Тюркский эпос: традиция, формы, поэтическая структура. -М.: Восточная литература, 2008; Zarifov H. Fozil shoir-mashhur dostonchi // Fozil shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 3-kitob. -Toshkent: Fan, 1974; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. - Toshkent: Fan, 1979.

Fedakar Selami. O‘zbek dostonchilik an’anasida va boshqa turkiy xalqlar dostonchilik maktablarida nomlash va tasnif // “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy– amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. – B.40.

Zarifov H. Fozil shoir – mashhur dostonchi // Fozil shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 3-kitob. – Toshkent, 1976. – B.9.

Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B.39.

Кыдырбаева Р.З.Сказительское мастерство манасчи. -Фрунзе: Илим, 1984.стр. 4.

Радлов В.В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. Ч.5. Наречие дикокаменных киргизов. – СПб., 1885.- С.89.

Alpomish. Doston. Aytuvchi Xushvaqt Mardonaqulov. Nashrga tayyorlovchi T.Turdiyev. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.30.

Путилов Б. Эпической сказительство. -М.: Восточная литература, 1997. Стр. 274.

Sarimsoqov B. “Alpomish” klassik epos namunasi. O‘zbek tili va adabiyoti, jurnal. 1999 №4-сон. 7-бет.